

PEDAGOGIK MAHORAT

6
2020



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2020-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2020

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA.....7

Сиддик ҚАХҲОРОВ, Дилшод МИРЗОЕВ, Азизбек САЙФУЛЛАЕВ. Мутахассислик фанларни ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланишнинг ўзига хосликлари	7
Валихожа АТАХОЖАЕВ, Султонпошша АБДУЛЛАЕВА. Кейс технологии как инновационный метод	10
Насиба СОБИРОВА. Функции методической службы в формировании профессиональных компетенций учителей	13
Раъно АЛИМАРДАНОВА. Ўзбек оилаларида ёш келин-куёв ўртасидаги соғлом муносабатларни таъминловчи миллий-психологик омиллар.....	16
Шахноза ШАРИПОВА. Таълим жараёнида инновацион технологиялар татбиқи.....	22
Nazokat SAYIDOVA, Gulbahor ZARIPOVA, Orifjon HAYDAROV. Oliy ta'lim jarayonining kredit-modul tizimida professor-o'qituvchi bilan talabalarning pedagogik hamkorligi	28
Шабон ФАРМОНОВА. Лойиҳавий таълим воситасида бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-педагогик зарурати.....	32
Шавқиддин АДАШБОЕВ. Олий таълим тизимини рақамлаштириш	36
Дилдора КАХХАРОВА. Теоретические основы организации инклюзивного образования в общеобразовательных школах	39
Шерзод АБДУРАҲМОНОВ. Бошланғич синф ўқувчиларида ватанга эътиқодни шакллантиришга йўналтирилган педагогик жараённинг ўзига хос хусусиятлари	45
Гулноз ОЧИЛОВА, Гулнора МУСАХАНОВА. Ёшлардаги тадбиркорлик қобилияти шакллантирилганлигининг гендер хусусиятлари.....	50
Yoqubjon DJUMANAZAROV. Barkamol avlod tarbiyasida g'oyaviy-mafkuraviy muammolarning psixologik aspektlari va ularning profilaktikasi.....	53
Зубайда БАХРОНОВА. Шарқ мутафаккирлари қарашларида ахлоқий маданият масалалари.....	59
Хусен САФОЕВ. Современные особенности диалектического развития морально-психологического фактора.....	63
Ҳасан БАҲРОМОВ. Ибн Сино маънавий меросида таълим-тарбия масаласи.....	68
Ҳусниддин ҲОМИДОВ. Ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялашнинг омиллари.....	72
M.Sh.ХОЛИЕВА. Abu Ali ibn Sino shaxsi va uning ta'lim-tarbiya taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.....	75
Шохруҳ САЛИХОВ, Тимур САЛИХОВ. Ўқувчиларда соғлом турмуш тарзини шакллантиришнинг психо-физиологик асослари	80
Амрулло АБДУЛЛАЕВ. Буюк саркардаларнинг ҳарбий стратегиялари асосида ватан ҳимоячиларини тарбиялаш	84
Учқун БАЛИЕВ. Гуруҳ мураббийларининг талабалар билан тарбиявий жараёнини ташкил қилиш ...	87
Темир ОЛИМОВ. Талабаларда фуқаролик маданиятини ривожлантиришда маънавий-маърифий ишларнинг мазмуни	90
Ситорабону ХОЛБОЕВА. Педагогические основы подготовки девушек студентов к семейным отношениям	93
Абдурашид ТУРҒУНОВ. Мактабгача ёшдаги болалар хотирасини ривожлантиришда психологнинг вазифалари.....	97
Жасур ОСТОНОВ. Копинг-стратегии: развитие в онтогенезе	102
Олмос АВЕЗОВ. Экстремал ва фавқулотда вазиятлар тўғрисида замонавий тушунчалар	105
Ҳалим ҲАСАНОВ. Ўқувчиларда мусиқий тасаввурлар шаклланишининг педагогик-психологик аҳамияти.....	110
Жамол НОСИРОВ. Спортчиларда ҳиссий-иродавий сифатлар шаклланишининг психологик хусусиятлари	113

МАКТАБГАЧА ВА БОШИЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ.....118

М.З.Файзуллаева, М.Э.Рустамова. Мактабгача таълим тизимининг сўнгги йиллардаги ривожланиш ва тараққиёти таҳлили	118
Umedjon JUMAYEV, Zarina ASHUROVA. Jahon maktabgacha ta'limi rivojida noan'anaviy mashg'uatlar: Valdorf, Montessori pedagogikasi.....	121

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH128

Насиба БОЗОРОВА. Юридик лексикани ўрганишда детектив асарларнинг роли.....	128
--	-----

Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғотит турк” асарида қўлланган кийим ва мато номлари	132
Sobit AVEZOV, Mahbuba SHARIPOVA. “Alpomish” dostoni-o‘zbek xalqi tarixining badiiy ifodasi	136
Гулчеҳра ИЗБУЛЛАЕВА. Фариддин Аттор асарларида аёл сиймоси садоқат тимсоли сифатида..	139
Мухаммад ФАЙЗУЛЛАЕВ, М.М.Саидова. Инновационный подход к сравнительно-типологическому анализу одноименных сказок народов Восточной Азии	145
Зульфия ТУЕВА, Дилором ЮЛДАШЕВА. Высказывание и о его видах.....	149
Нодирбек ҚАМБАРОВ. Ўқувчининг нутқий компетенциясини ривожлантиришда психоллингвистиканинг ўрни	155
Гулзира МАДАМИНОВА. Ўқувчи мотивациясини ривожлантиришда таълимий драма технологиясидан фойдаланиш	160

ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH164

Умида УМАРОВА. Мулоҳазалар алгебрасини ўқитишда интерфаол методлардан фойдаланиш методикаси.....	164
Комил МУҚИМОВ, Сиддиқ КАХҲОРОВ, Гофуржон ЭШОНҚУЛОВ, Дилноза НОМОЗОВА, Моҳинур САЛИМОВА. Сканловчи яқин майдонли оптик микроскоп.....	170
Siddiq QANHOV, Abdimo‘min KARIMOV, Oynisa KARIMOVA. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning tafakkurini oshirish.....	175
Ahat AHMEDOV. Yuqori malakali fizika o‘qituvchilarini tayyorlashda laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘rni va ahamiyati	179
Мирзохид ТУРДИЕВ. Суюқ ва газ лазерларининг тиббиётда қўлланилиши.....	182
Холмухаммад АМОНОВ. Географияни ўқитишда ўқувчиларнинг билиш фаолиятини ташкил этиш ва бошқариш йўллари.....	186

EASVIRIY SAN‘AT VA MUSIQA TA‘LIMI.....190

Саида ЭРГАШЕВА. Формирование у учеников художественных и культурных компетенций в виде проблемы	190
Алишер БЕРИКБАЕВ. Ўқув машғулотларида талабаларнинг касбий компетентликларини ривожлантиришнинг субъектив таъсири.....	193
Санокул ДЎСТОВ. Миллий мусиқа чолғуларнинг шаклланиши ва ривожланиши.....	198
Azamat RAJABOV. Markaziy Osiyoda musiqa san‘ati va cholg‘u ijrochiligining rivojlanishi	202
Рустам РАҲИМОВ. Мусиқа ва санъат мактаблари ўқувчиларини ахлоқий-эстетик тарбиялашнинг назарий асослари	205

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT209

Бегзод КАРИМОВ. Ўқувчи ёшларнинг жисмоний маданият ва спорт билан шуғулланиш жараёнида маънавий-ахлоқий сифатларини шакллантириш	209
Руслан МЕЛЬЗИДДИНОВ. Специальная работоспособность футболистов как фактор подготовленности спортсменов	213
Фаррух ТУРКМЕНОВ. Миллий ўйинлар ва спорт байрамларининг инсон жисмоний ва ахлоқий-эстетик тараққиётидаги ўрни	216
Акрам АКМАЛОВ, Аксам УСМОНОВ. Спорт мутахассисларининг малака ошириш курсларида инновацион технологияларга интегратив ёндашув	220
Шухрат ХИДОЯТОВ. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда жисмоний тарбиянинг аҳамияти	225
Камол БЎРИЕВ. Кураш спорт турида тадқиқотларни ўтказиш усулларининг ўзига хослиги.....	229

Sobit AVEZOV

Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti
filologiya fanlari nomzodi

Mahbuba SHARIPOVA

Buxoro davlat universiteti
maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

“ALPOMISH” DOSTONI-O‘ZBEK XALQI TARIXINING BADIY IFODASI

Maqolada “Alpomish” dostoni o‘zbek xalqining milliy asari ekanligi, turkiy urf-odatlar tarzi, dostonidagi alohida shaxslar antroponimlarida badiiy-estetik xususiyatlari, shuningdek, “Alpomish” dostonini o‘qitish tarbiya masalasi sifatida bizga beqiyos ibrat namunasi ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq dostonlari, folklor, folklorshunoslik, ishq-muhabbat, milliy madaniyat, antroponimlar, marosim, urf-odat, marosim va doston munosabatlari.

В статье рассматривается тот факт, что эпоса “Альпомиш” - это национальное произведение узбекского народа, стиль национальных традиций, художественные и эстетические особенности антропонимов отдельных лиц в эпосе, а также преподавание эпоса “Альпомиш” как уникального примера воспитания.

Ключевые слова: народные эпосы, фольклор, фольклористика, любовь, национальная культура, антропонимы, ритуалы, обычаи, ритуалы и этические отношения.

The article considers the fact that the Alpomish epic is a national work of the Uzbek people, the style of national traditions, the artistic and aesthetic features of the anthroponomy of individuals in the epic, as well as the teaching of the Alpomish epic as a unique example of upbringing.

Key words: folk epics, folklore, folklore, love, national culture, anthroponomy, rituals, customs, rituals and epic relationships.

*Folklor asarlarining ilmiy-badiiy qiymati
ularning lug‘at boyligi bilan belgilanadi.*

Hodi Zarifov

“Alpomish” dostoni xususida qariyb bir asrdan buyon turli darajada fikr-mulohazalar bildirilib kelinmoqda. Ularda dostonning har xil jihatlari atroflicha tadqiqqa tortilgan. Jahon ma’naviyati va madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan, o‘tmishi yuqori saviyada o‘tgan xalqlar og‘zaki ijodiga butun dunyo folklorshunos olimlari muttasil o‘rganayotgan asarlar bor. “Alpomish” ham ana shunday asarlar qatorida munosib o‘ringa ega. Shuning uchun ham folklorshunoslikda “Alpomish”ning xalq qahramonlik eposi sifatidagi tarixiy ahamiyatini atroflicha o‘rganganlar. Hamid Olimjon, Hodi Zaripov, To‘ra Mirzayev, Malik Murodov, Bahodir Sarimsoqov, Mamatqul Jo‘rayev kabi o‘zbek olimlari mazkur asarni ijtimoiy hayotning badiiy ijodidagi ifodasi yo‘nalishida tadqiq etganlar [1]. Doston haqidagi yangi fikr B.Sarimsoqovning “Alpomish” eposi haqida uch etyud” hamda “Alpomish” klassik epos namunasi” maqolalarida qayd etildi [2]. Xususan, bu maqolada, avvalo, turkiy xalqlar, jumladan, o‘zbek xalqining mustaqil xalq sifatidagi o‘ziga xos belgilari birinchi navbatda qahramonlik eposida aks etishi qonuniyati kashf etildi. Natijada olimlar tomonidan doston o‘rganilar ekan, “Alpomish” o‘zbek xalqi tarixining badiiy ifodasi san’atda aks etgan va og‘zaki ijodda muhrlangan hujjat ekani to‘liq isbotlandi. Badiiy san’atda shunday asarlar borki, ularni o‘rganish ijod samaralarini tahlil qilish bir necha avlodlar sa’y-harakatlari bilan ham o‘z nihoyasiga yetmaydi. Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. Millatning o‘ziga xosligini tayin etadigan eng katta va asosiy belgi til bo‘lsa, uni unutilgan odamda millat tuyg‘usi bo‘lmaydi. “Alpomish” dostoni o‘zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir. Chunki asarda o‘zbekka xos o‘ylash tarzi, ta’sirlanish yo‘sini ifoda topgan. Til butun xalqning ko‘p asrlar davomida to‘plagan tunganmas xazinasi. Tildagi har bir so‘z o‘zining milliyliigi va serqatlamligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. “Alpomish” dostonidagi har bir ibora, maqol, matalda yashash tarzimiz, qadriyatlarimiz, ma’naviyatimiz, xalqimiz, adabiyotimiz, og‘zaki adabiy tilimiz tarixidan dalolat beradi. Dostonning bu serjilo tili, o‘z navbatida, xalq tili ta’minlanishida ko‘rinadi. Xalq tili esa tunganmas boyliklar bulog‘i, misli bir xazina. “Alpomish” dostonida qadimda ota-bobolarimiz amal qilgan urf-odatlar, udumlar, go‘zal til, jozibali nutq, betakror tasviriy ifodalar bilan yetkazib berilganki, bugungi yoshlarimizga uni singdirish, ularni bu udumlar bilan tanishtirish o‘zlikni anglashga undash bilan birga, xalq tili qudratini ham his etishga xizmat qiladi. Milliy ruh yaqqol aks etgan asarlarda personajlarning xatti-harakatlari, o‘ylari faqat muayyan millat vakiliga mansub ekanligi o‘zi-o‘zidan anglashilib turadi. “Alpomish”da bu holatlar har bir qahramon suvrati-yu siyratiga

singdirilgan. Ana shu kabi masalalarni o'rganish mavzuning dolzabligini ko'rsatadi. Xalq ijodini o'rganish – xalqning tarixi, urf-odati, an'analari, o'y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir [4]. Unda millatning o'zini anglashi, o'zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan. Ammo dostonning o'qimishligini ta'minlagan, xalqimiz qalbidan chuqur o'rin olgan jihati uning milliy ruhiyatimiz bilan chambarchas bog'liqligidadir. Holbuki, "Alpomish" millat uchun faqat o'tmish emas, hozir va kelajak hamdir. U barcha badiiy buyuk asarlar singari abadiyatga daxldor [7]. Shuning uchun asarda milliy o'zlik masalasi, qahramonlar ruhiyatida milliylik masalalarini tekshirish adabiyotshunosligimizning kechiktirib bo'lmas masalalaridan biridir.

Boybo'ri va Boysarilarning ismlari etimologiyasi, hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan "boy" ma'nosida emas, balki qadimgi turk tili ma'nosida – "qabila, urug'". Shunday qilib, Boybo'ri (Boy + bo'ri) va Boysari (Boy + sari) qabilaviy bo'lib, so'zma-so'z tarjimasi – "bo'ri" qabilasi boshlig'i, "sari" qabilasi boshlig'i ma'nosini bildiradi. Tarixdan ma'lumki, turk qabilalarining (turkutlar) ilk birlashmalari dohiy Ashina tomonidan 545-yili amalga oshirilgan [1]. Uning ismi syanbiy (qadimgi mo'g'ul) tilida "Oliyjanob bo'ri" ma'nosini anglatadi [2]. Turkutlarning asosiy totemi bayroqlariga zar bilan tikilgan oltin bo'ri hisoblanadi. Boybo'riining zakot haqidagi iltimosini Boysariga 14 ta elchi (mahram) yetkazadi, ularning ko'kragida qo'tosining oltin tasviri bor edi. Boybo'ri (Alpomishning otasi)ning elchilari erkaklik, hosildorlik timsoli bo'lgan qo'tos tasvirini bejiz ko'kraklariga tushirishmagan. Doston boshida elchilar Boysari (Barchinoyning otasi) jallodlari qo'lida halok bo'lishsa-da, doston yakunida Alpomish sevgilisi va uning otasini qalmiqlar asirligidan ozod qiladi. Surhayl kampirning (Alpomishning ashaddiy dushmanlaridan biri) o'g'illaridan ba'zilarining ismi ham qadimgi totem va astral kultlarning sarqitlaridan xabar beradi. Ko'kqashqa (Ko'k+qashqa), Boyqashqa (Boy+qashqa) zoomorf antroponim bo'lib, so'zma-so'z "ot qabilasi"dan degan ma'noni anglatadi. Ko'kaman (Ko'k+man) – "qo'y qabilasidan". Bosh qahramonlarning tug'ilgan joylari Boysun (Boy+sun) "butun qabila" ma'nosiga muvofiq keladi. Bu syujetning drammatik yechimiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Aynan kelishmovchilikdan so'ng Boysari o'z qavmini qalmoqlar yurtiga boshlab ketgach, butun qabila ikkiga bo'linadi, ular vataniga, ya'ni Boysunga qaytgach, yana bir butunga aylanadi. Alpomish singlisining ismi Qaldirg'ochoyim sadoqat, qondoshlik aloqalarining mustahkamligini ifolaydi, zero o'zbek xalq poeziyasida qaldirg'och aynan shu sifatlar ramzidir. Aynan singlisi tufayli Alpomish qallig'iga tahdid solayotgan xavf haqida bilib oladi. Va aynan Qaldirg'ochoyim Alpomishni uyaltirib, Oybarchin va uning otasiga yordam berishga chorlaydi, o'z baxti va xalqning birligi uchun jasorat ko'rsatishga undaydi. Suqsuroy antroponimi (Oybarchinga nisbatan qo'llanilgan epitet hamda uning ismi so'zma-so'z "Suqsur-Oy") ism bekasining chiroyini ta'kidlaydi. Bosh qahramon Alpomish ismi ikkita so'zdan tuzilgan: alp+mish (yoki manash, misha). Alp polvonni anglatadi: mil (sansk. mesa) – astronomik Hamal burji. Shunday qilib, qahramonning ismi bahodir – qo'y, Hamal burjida tug'ilgan bahodir ma'nosini bildiradi. Qo'y obrazi O'rta Osiyo ko'chmanchi chorvador xalqlari san'atida asosiy obrazlardan biri bo'lib, hali-hanuzgacha qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlar naqshu nigorlarida saqlanib qolgan. Lekin syujet rivoji davomidagi ko'plab epizodlar, boshqacha, ya'ni nikohning va qarindoshlik rishtalarining ancha avvalgi shakllarini tasvirlaydi. Qalmoqshohning jallodlari dehqonchilik nimaligini bilmaydigan xalqi qalmiqlar yurtida butun dalalarni payhon qilganligi uchun Boysarini ushlaganda, u qo'yib yuborishlarini, buning uchun butun boyligini berishga tayyor ekanligini aytadi. Shu asnodda u agar: "Molim yetmasa beray Barchin qizimni", deydi. Ya'ni bu yerda u qiziga boyligining bir bo'laki sifatida qarashligi ta'kidlanadi. Lekin dostonning bosh qahramoni Barchinoy nozik-nihol, hijron azobida qaddi bukilgan sohibjamolni emas, balki polvon qizni ("alp qiz") namoyon qiladi. Ota-onalari bilan majburan qo'noq topishgan uzoq qalmiq yurtida qiz unga sovchi bo'lib kelgan 7 ta o'zga yurtlik polvonlarning do'q-po'pisalarini nazar-pisand qilmaydi. Aksincha, unga tahdid qilgan birovini osongina yelkasi osha irg'itib yuborib, yelkasini yer tishlatadi va yengilgan polvonning qorniga tizzasini bosib, qolgan polvonlarga o'z shartlarini qo'yadi: unga 6 oy muhlat berishlarini va u bu vaqtda unashtirilgan yigiti bilan bog'lanib, uning xohish-istagini bilishini aytadi. Barchinoy obrazi matriarxal xarakterdagi obraz. Yettita qalmiq polvonlar esa Barchinoyning huzuriga kelib unga: "O'rtada jovlik xotinli bo'lib qolaylik" yoki "O'zbek qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz olaylik", deb o'z shartlarini qo'yadilar. Qalmoq bahodiri Qorajon (keyinchalik Alpomishning do'sti) uni o'zbek qiziga unashtirish uchun sovchilikka borgan onasidan: "Tulki bo'lib kelyapsanmi, bo'rimi?" deb so'raydi. "Bo'ri" so'zining ma'nolaridan biri o'g'il ekanligini nazarda tutgan holda, yuqorida keltirgan gapning ma'nosini quyidagicha sharhlash mumkin: sen o'g'lingni unashtirdingmi yoki ikki qo'lingni burningga tiqib kelyapsanmi, ya'ni erkaklik ustun keldimi yoki ayollik? Dostondagi ko'pqatlamli mifologik fikr matnning analogiya, ko'pma'nolilik kabi ma'nolarga to'yinganligida ko'rinadi. Zero, uzoq yo'l yurib kelgan Alpomish tun tushishi oldidan, yorug'likka ko'zi tushib, mozoristonda yotib qolishga qaror qiladi: "Kech qolgan odam mozorotda yotadi". Shu ma'noda u "ahli quburlarga" yotib qolish uchun ruxsat so'rab murojaat qiladi. Lekin yorug'lik ichidan chiqib kelgan odam avvaliga unga rad javobini beradi: "Bu yerda otingizga joy bor,

o'zingizga joy yo'q". Ushbu sahnada ajdodlarimizning ibtidoiy udumlari turli mifologik qatlamlar bilan o'ziga xos tarzda chog'ishib ketgan. Ma'lumki, homiy ajdodlarimizning marosimlari (dafn va ehson marosimlari) erta diniy shakllardan biri bo'lib, uning kelib chiqishi musulmonlikdan ancha oldingi davrga borib taqaladi. Rad javobining ma'nosi esa, ajdodlar ruhi (ularning qo'nim topgan joylari mozariston) odam o'rniga otni tanlashdi. Ko'plab qadimgi chorvadar xalqlarning dafn marosimlarida otning ahamiyati alohida ma'no kasb etadi. Surxayl degan qo'shma so'z "sur", ya'ni, bezbet va "xayl", ya'ni, "ahli" so'zining o'zgargan shakli (deylik, mumtoz she'riyatimizda "oshiq ahli" aksariyat hollarda "oshiq xayli" tarzida qo'llangan) – shu ikki so'zdan tarkib topgan. Demak, "Surhayl" – bezbet ahlidir. "Maston" esa, makrni "makkor", "ayyor", "tulki", "jodugar", "tovlamachi", "bozigar" kabi so'zlardan ham kuchliroq ifodalovchi so'z bo'lib, "mast qiluvchi makkor" demakdir. Ma'lumki, "ko'kaldosh" so'zining tub lug'aviy ma'nosi "bir onaning ko'kragini emib katta bo'lgan ikki go'dakning biri" demakdir. Shunday ekan, Surxayl mastonning to'ng'ich o'g'li kimning ko'kaldoshi? Dostonda bu xususda lom-mim deyilmaydi. Ko'kamanning uch ukasining "Ko'kqashqa", "Boyqashqa", "Toyqashqa"ligi ham bejiz emas, albatta. Ular ham shohlikka baayni otning qashqasidek ko'zga ayon tashlanib turgan da'vog'arlar: birining "Ko'kaldosh" bilan "Ko'kaman"ga o'xshab "ko'k"i bor, birining boyligi bor, yana biri hali toy, "Toychixon" bo'lmasa-da, har qalay, "toy"! Oltinchi o'g'il "Qo'shquloq" deb ataladi. Yetti o'g'ilning faqatgina kenjasi Qorajondagina "jon" bor, ya'ni, u olti akasi, xususan, Qo'shquloqdek "jonsiz" emas. Bunda ham tagma'no bor, albatta. Chunki Qorajon, "qora xalq", "avom"ning timsolidir. Turkiy tilimizda "qora" so'zi rang-tusni emas, "katta" ma'nosini anglatishi ko'pchilikka ma'lum: qoraxoniylar, qoraxitoylar, Qorabotir, qoramol va hakozi. "Katta xalq"ning "jon"i bo'lishi tabiiy, albatta. Qanaqangi makr saltanatida yashamasin, modomiki odam bolasi "aqlli jon", "ongli mavjudot", "tafakkur sohibi" sifatida yaratilgan ekan, qora xalq ichidan ertadir-kechdir joni, ya'ni, dilda dardi, iymoni-vijdoni bor kiroyi shaxs, mardi maydon qahramon chiqishi tabiiy. Folklorshunos Jabbor Eshonqul o'zining "Alpomish" dostonida ayollar obrazi" nomli maqolasida dostonidagi ayollar obrazi va ularning ismlaridagi o'ziga xos jihatlarga e'tibor qaratadi. Jumladan, "Alpomish"dostonida Alpomishning onasing oti Kuntug'mish. Bu nom shunchaki oddiy nom emas. Bu ism ajdodlarimizning qadim tasavvurlari bilan bog'liq. Kun, ya'ni quyosh qadimda muqaddas sanalgan. Quyosh qadimda tangri maqomidagi barcha tiriklikning homiysi hisoblangan. Til butun xalqning ko'p asrlar davomida to'plagan tunganmas xazinasini. Tildagi har bir so'z va so'z qiymatini moddiy xazinalar, moddiy boylik bilan o'lchab ham, baholab ham bo'lmaydi. Masalaga xuddi shu nuqtayi nazardan qaralganda, Fozil Yo'ldosh o'g'li kuylagan "Alpomish" dostonidagi har bir ibora, maqol, matal kishi havas qilgudek. Boshqacha qilib aytganda, mazkur doston tili har jihatdan kishini lol qoldirgudek. Darhaqiqat yashash tarzimiz, qadriyatimiz, ma'naviyatimiz, xalqimiz, adabiyotimiz, og'zaki adabiy tilimiz tarixi bo'lmish "Alpomish" dostonining sehrli, jozibali, maftunkor, shirador tili, ijro usuli o'quvchini sehrlasa, sehrlagudek. Doston tilining bu qadar sehrli bo'lishini esa o'z navbatida xalq tili ta'minlagan ko'rinadi.

Xulosa qilib aytganda, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy qadriyatlar silsilasini o'rganish va uning qadimiy an'analari qayta tiklashga bo'lgan ehtiyoj folklor merosini targ'ib va tadqiq qilishga undaydi. Mamlakatimizda olib borilayotgan yangilanish va o'zgarishlar adabiyot va san'at ahli oldiga bir qator muhim talab va vazifalar qo'yimoqda. Zero, ma'naviyat borasida olib borilayotgan ezgu ishlarning yechimi bevosita zamondoshlarimizning ma'naviy olamini tubdan yangilash, boyitish va ularni komil insonlar qilib tarbiyalashdek dolzarb masalalar bilan chambarchas bog'langandir. Folklor asarlarida o'z ifodasini topgan milliy qadriyatlar yosh avlodni har tomonlama kuchli, ma'naviy jihatdan yetuk va barkamol qilib tarbiyalashning muhim omillaridan biridir.

Adabiyotlar

1. Iso Jabborov. O'zbek xalq etnografiyasi. -Toshkent, 2001-yil, 18-bet.
2. Jabbor Eshonqul. "Alpomish"dostonida ayollar obrazi. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. –Toshkent, 4/1999. 16-17-betlar.
3. Yormatov I. O'zbek xalq eposi badiiyati ("Alpomish"dostoni asosida). -Toshkent, 1993.
4. Jabbor Eshonqul. Folklor: obraz va talqin. -Qarshi: "Nasaf", 1999-yil.
5. Ўраева Д. Ўзбек мотам маросими фольклори. – Т.: "Фан", 2004. – 120 б.
6. Ўраева Д. Яхшиларга ёндашиб // Охунжон Сафаров. Ижодий портрет. – Т.: "Мухаррир", 2010. 75-78-б.